

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI KASBIY TA‘LIM AGENTLIGI
KASBIY TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH INSTITUTI**

**O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA‘LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG
KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MUSIQA
NAZARIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINOVI TOPSHIRIQLARI
SPETSIFIKATSIYASI**

Toshkent – 2026

O‘RTA MAXSUS VA KASBIY TA’LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O‘TKAZISH UCHUN MUSIQA NAZARIYASI FANIDAN MALAKA TEST SINIVI TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta’lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Musiqa nazariyasi fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo‘llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me’yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko‘nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo‘yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me’yoriy asoslar

1.O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentabrdagi **“Maktabgacha, umumiy o‘rta, o‘rta maxsus, kasbiy ta’lim va maktabdan tashqari ta’lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o‘tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 572-sonli Qarori.**

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Musiqa nazariyasi

1. Musiqiy ifoda vositalari. Musiqiy tovush. Musiqiy tizim. Nota yozuvi;
2. Metr. Ritm. Temp;
3. Lad. Xalq musiqasining lادلari;
4. Interval. Xarakterli intervallar.;
5. Akkordlar. Melizmlar. Xromatizm.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

| T/r | Mazmun sohalar | Konstruktlar | Testlar soni |
|-----|---|--|--------------|
| 1 | Musiqiy tovush. Musiqiy tizim. Nota yozuvi. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Tovush tushunchasi 2. Musiqiy tizim. Tovushqator. Pog'onalar. 3. Oktavali tizim. Diapazon. Registr. Harfiy sistema. 4. Temperatsiyalangan soz. Hosila pog'onalar. Alteratsiya belgilari. Tovushlar engarmonizmi. 5. Nota yozuvi. Kalitlar. 6. Tovush cho'zimplari. Pauzalar. | 9 ta |
| 2 | Metr. Ritm. Temp | <ol style="list-style-type: none"> 1. Metr. Takt. O'lchov. 2. Metr turlari. Oddiy metrlar. 3. Murakkab metrlar. 4. Ritm. Sinkopa. 5. Temp | 3 ta |
| 3 | Lad. Xalq musiqasining lادلari | <ol style="list-style-type: none"> 1. Lad. Turg'unlik va noturg'unlik. 2. Oktavali lad pog'onalarining maxsus nomi. 3. Major va minor turlari. Tetraxordlar. 4. Tonallik. Kvinta davrasi. 5. Parallel, nomdosh va engarmonik teng tonalliklar. 6. Melodik ladlar. 7. Tabiiy ladlar. Pentatonika. Ikkalanma garmonik major va minor. | 6 ta |
| 4 | Interval. Xarakterli intervallar. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Interval. Pog'onalar va tonlar miqdori. 2. Diatonik intervallar. 3. Xromatik intervallar. Intervallarning engarmonizmi. 4. Intervallarning aylanishi. 5. Tabiiy major va minor intervallari. 6. Xarakterli intervallar. 7. Intervallarning yechilishi. | 7 ta |
| 5 | Akkordlar. Xromatizm. | <ol style="list-style-type: none"> 1. Akkord. Akkord turlari. 2. Uchtovushlik. Uning turlari va aylanmalari. 3. Major va minor uchtovushliklari. 4. Septakkord. Uning turlari va aylanmalari. 5. Dominantseptakkord. 6. Yetakchi septakkord 7. Subdominantseptakkord | 15 ta |

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

| T/r | Kognitiv daraja | Izohi | Ulushi (%) |
|-----|-----------------|---|------------|
| 1. | Bilish | Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish | 20% |
| 2. | Qo'llash | O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish | 60% |
| 3. | Mulohaza qilish | Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish | 20% |

VI. Test turlari va taqsimoti

| T/r | Test turi | Izohi |
|-----|-----------|---|
| 1. | Y1 | To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test |
| 2. | Y2 | Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test |
| 3. | Y3 | Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test |
| 4. | Y4 | Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test |

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test topshirig'ini bajarish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. V.Vaxromyev. Muzikaning elementar nazariyasi. Toshkent, 1983 y.
2. G.A.Ibraximjanova, L.A.Urmanova, M.X.Xodjayeva, F.N.Xalilov "Musiqqa elementar nazariyasi. Garmoniya" Toshkent 2017.

**Eslatma: test topshiriqlari mazmuni tavsiya etilgan adabiyotlarda aks etgan mazmun, tamoyil va yondashuvlar bilan moslashtiriladi, ammo test topshiriqlari to'g'ridan - to'g'ri manbalardan olinmaydi. Malaka sinoviga tayyorgarlik ko'rish jarayonida tavsiya etilgan adabiyotlar eslab qolish manbai sifatida xizmat qilishdan ko'ra, umumiy kasbiy tayyorgarlikni mustahkamlashga qaratilgan.*